

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov Prezident va nomli davlat stipendiyalarini qo'lga kiritgan talabalar bilan uchrashdi.

Bugun 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov Prezident va nomli davlat stipendiyalarini qo'lga kiritgan talabalar bilan uchrashdi.

Muloqot davomida rektor mazkur yutuq egalarini tabriklab, ularning ilmiy-ijodiy faoliyatida muvaffaqiyat tiladi. Shu bilan birga, talabalarga esdalik sovg'alari taqdim etildi.

«Barchangizni Prezident va nomli davlat stipendiyalarini qo'lga kiritganingiz bilan chin qalbimdan tabriklayman. Biroq bu bilan chegaralanib qolmasligingiz va barchaga o'rnak bo'lishingiz lozim. Barchangiz oddiy oila farzandisiz, bunday natijalarga o'z bilimingiz va intilishlaringiz evaziga erishdingiz. Siz kabi yoshlar institutimiz ravnaqiga hissa qo'shishiga ishonch bildiraman. Ilm olishdan va intilishdan to'xtamang», dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.

0'z navbatida, talabalar ularni qo'llab-quvvatlab kelayotgan ustozlari hamda institut rahbariyatiga minnatdorchilik bildirdi.







Taniqli rejissyor Olimjon Salimov ishtirokida O'zbekiston davlat drama teatri bosh rejissori Olimjon Salimov bilan uchrashdi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov O'zbekiston davlat drama teatri bosh rejissori Olimjon Salimov bilan uchrashdi.

Muloqot davomida bugungi kunda o'zbek teatriddagi yutuq va kamchiliklar borasida fikr almashildi.

Shuningdek, ustoz rejissyor ishtirokida institut talabalari uchun mahorat darslari tashkil etish borasida kelishuvga erishildi.





«Renessans» kino uyida «Tirik tarix» turkumidagi filmlar dasturining kengaytirilgan muhokamasi bo'lib o'tdi

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonga sayyoohlarni ko'paytirish masalalari bo'yicha yig'ilishda Kinematografiya agentligiga milliy tarix bo'yicha kamida 50 ta badiiy, hujjatli va musiqali asarlar yaratish dasturini ishlab chiqish topshirig'ini bergandi.

Bugun «Renessans» kino uyida Kinematografiya agentligi tomonidan ishlab chiqilgan «Tirik tarix» turkumidagi filmlar dasturining kengaytirilgan muhokamasi bo'lib o'tdi. Unda san'at arboblari, olimlar, kinoijodkorlar, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati, professor-o'qituvchi va talabalari hamda kino ixlosmandlari ishtirok etdi.


«Tirik tarix» turkumidan 2024–2030-yillarda yaratiladigan tarixiy hamda tarixiy-biografik filmlar o'rin olgan.

Dastur 8 ta turkumni o'z ichiga olgan bo'lib, 50 ta kinoloyihadan o'ttiz beshtasi badiiy, ikkitasi badiiy-publisistik va animasion film, bittasi qisqa metrajli badiiy film, kinoserial hamda animasion serial hisoblanadi.

Muhokamada mutaxassislar tomonidan taklif va mulohazalar bildirildi. Shu o'rinda, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov hamda Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati kafedrasi mudiri Iqbol Meliqo'ziyev dastur bo'yicha o'z fikrlarini aytib o'tdi.

Shu bilan birga, suratga olinadigan filmlarda oliygoh talabalari qamrovi yuqori bo'lishi, ularni malaka oshirish uchun xorijiy mamlakatlarga yuborish masalalari ko'rib chiqildi.







0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov kutubxona-axborot faoliyati fakulteti sirtqi bo'lim talabalarini bilan uchrashdi

Bugun 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov kutubxona-axborot faoliyati fakulteti sirtqi ta'lif yo'nalishida tahsil oladigan talabalar bilan uchrashdi.

Uchrashuv avvalida institut rahbariyati tomonidan talabalarga oliygohning ilmiy-ijodiy faoliyati, yutuqlari, xalqaro hamkorlikda amalga oshirayotgan loyihalar hamda istiqbolli rejalar haqida ma'lumot berib o'tildi.

«So'nggi yillarda ko'plab yutuqlarga erishdik. Institutda faoliyat olib borayotgan fan doktor va professorlar soni sezilarli ravishda ko'paydi. Shu bilan birga, talabalarimiz respublika va xorijiy tanlovlarda g'olib va sovrindorlar qatoridan o'rinnegallamoqda. Talabalarning yutuqlaridan biz hamisha faxrlanamiz va imkoniyatimiz darajasida ko'mak berishga tayyormiz. Kelgusi yil ham istiqbolli rejalarini amalga oshirishda davom etamiz.

«Kutubxonachilar men uchun alohida ahamiyatga ega soha vakillari hisoblanadi. Chunki bugungi darajaga yetib kelishimizda biz o'qigan kitoblar hamda ularni ulashishda bevosita xizmat ko'rsatgan kutubxona vakillarining xizmati nihoyatda beqiyos sanaladi. Kutubxonachilar barcha davrda e'zozlanib kelgan. Kitobga oshno bo'lgan odamning qalbi toza bo'ladi. Dunyoni faqatgina ilm-fan orqali zabit etish mumkin», **dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.**

Ochiq muloqot tarzida o'tgan davra suhabatida talabalar tomonidan takliflar bildirilib, ularni tatbiq etish bo'yicha mas'ul shaxslarga tegishli topshiriqlar berildi.





O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari rejissyor David Treitiakoff tomonidan mahorat darsslari o'tkaziladi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari uchun «Les Ateliers Varan» hujjatli filmlar muktabi a'zosi, rejissyor David Treitiakoff tomonidan ikki hafta mobaynida

mahorat darslari o'tkaziladi.

Fransiyalik mutaxassis bugun oliygohga tashrif buyurib, rektor v.b. Eldor Shermanov bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida tomonlar ikki mamlakat o'rtasida hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqayotganini ta'kidlashdi.

«O'zbekistonda fransuz tili va madaniyatiga bo'lgan qiziqish yuqori darajada hisolanadi. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, o'zaro hamkorligimiz ikki mamlakat madaniy aloqalari rivojiga ulkan hissa qo'shadi», dedi O'zDSMI rektori v.b. Eldor Shermanov.

O'z navbatida, fransiyalik mutaxassis hamkorlik masalasi amaliy tus olganidan xursand ekanligini ta'kidladi.

«O'zbekistonga ikkinchi marotaba tashrif buyurdim. Mamlakat nihoyatda go'zal, yoshlari ham juda iqtidorli sanaladi. O'zaro hamkorlikda samarali loyihalardan biri amalga oshirilayotganidan behad xursandman», dedi David Treitiakoff.

O'zbekistonning Fransiyadagi elchixonasi tashabbusi va ko'magida amalga oshirilayotgan mazkur loyiha davomida xorijlik mutaxassis tomonidan talabalar uchun rejissura va montaj jarayoni bo'yicha saboq beriladi.








0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'quv teatrida estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari tomonidan Qo'chkor Norqobil qalamiga mansub «Ikki oyoqli bo'rilar» dramasi sahnalashtirildi


Bugun 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'quv teatrida estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari tomonidan Qo'chkor Norqobil qalamiga mansub «Ikki oyoqli bo'rilar» dramasi sahnalashtirildi.

Professor Jahongir Mamatqosimov rejissyorligidagi mazkur spektaklda halollik, mehr-oqibat va sevgi-muhabbat tushunchalari ulug'lanib, ta'magirlik, yolg'onchilik, ko'zbo'yamachilik, birovni haqqiga xiyonat qilish kabi illatlar keskin qoralangan.

Spektakl o'zining qiziqarli syujeti va tomoshabopligi bilan olqishlarga sazovor bo'ldi. 0'z navbatida, institut rahbariyati tomonidan rejissyor, aktyor va aktrisalar

mukofotlanishi ta'kidlab o'tildi.







O'zbekiston professor-o'qituvchilari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etmoqda

Samarqand viloyati musiqali drama teatrida «Yangi O'zbekiston teatri san'ati: dramaturgiya va rejissyuraning dolzARB masalalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazilmoqda.

Unda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, tayanch doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari ishtirok etmoqda.

Koferensiya davomida oliygohimiz vakillaridan Omonulla Rizayev, Ma'mur Umarov, Usmon Azim, Qo'chqor Norqobil, Go'zal Xoliqulova, Baxtiyor Yakubov, Faxriddin Abduvohidov va boshqalar ma'ruza qiladi.

Eslatib o'tamiz, konferensiya 2-dekabr kuni yakuniga yetadi.



**Chelyabinsk madaniyat
instituti vakillari tomonidan**

konsert dasturi o'tkazildi

Xabaringiz bor, yaqinda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Chelyabinsk madaniyat instituti o'rtasida yangi memorandum shartnomasi imzolangandi.

Bugun O'zDSMI o'quv teatrida Chelyabinsk oliygohining xalqaro tanlovlari lauretlari ishtirokida konsert dasturi bo'lib o'tdi.

Yetuk kompozitorlar tomonidan ijro etilgan musiqalar tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.



